

**MAHORATI YOZUVCHI ISAJON SULTONNING " ABU RAYHON BERUNIY "  
ROMANI TAHLILGA TORTILADI.**

Bekmirzayeva Mashhura

301-guruh talabasi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada mahorati yozuvchi Isajon Sultonning " Abu Rayhon Beruniy " romani tahlilga tortiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Abu Rayhon Beruniy, Mahmud G'aznaviy, to'qima obrazlar.*

Men shu paytgacha tarixiy romanlardan bir nechtasini mutolaa qilganman. Masalan, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", Pirimql Qodirovning "Yulduzli tunlar", Oybekning "Navoiy", Radiy Fishning "Jaloliddin Rumiy" asarlari shular jumlasidandir.

Aytmoqchimanki, mening tarixiy romanlar haqida, umuman ularning xususiyatlari, qanday bo'lishi kerakligi, bu turdag'i romanlar nimani yoritib berishi haqida ma'lum tushunchalarim bor.

Tarixiy romanlarda o'tmishdagi ommaga ma'lum va mashhur tarixiy shaxslarning hayot yo'li, ijodi, qanday ishlar qilgani yoziladi. Biz asarni o'qib undagi tarixiy shaxs haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz, ularga munosabatimiz o'zgaradi, ilk tasavvurlar uyg'onadi. Bugun esa ana shu kabi romanlardan biri "Abu Rayhon Beruniy" asari haqida gaplashamiz. Ushbu asar Isajon Sulton qalamiga mansub.

Meni quvontiradigan tomoni shundaki, men o'qiyotgan kitob muallifi hayot, men bilan bir osmon ostida yashayapti. Albatta, bu kitobxonga o'zgacha hissiyat va hayajon bag'ishlaydi. Endi esa asarga to'xtalamiz. Ushbu asar men o'qigan romanlardan farqli jihatlarga ega. Eng avvalo tili sodda, ravon shuning uchun ham mutolaa davomida o'quvchini zeriktirmaydi, aksincha yanada "ishtahani ochaveradi".

Asar voqealari obrazlar tilidan hikoyalar orqali tavsiflansa-da, romanda bosh qahramon Abu Rayhon Beruniy bo'lishiga qaramay, Beruniyning tilidan hikoyalar keltirilmaydi, balki atrofidagi obrazlar Beruniyni "ochiqlaydi". Buni ham bir ma'noda yozuvchining mahorati deyishimiz mumkin. Shuningdek asarda xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan o'rinalar ham uchraydi.

Masalan, tush motivi, tushda kejalakning bashorati, har doim yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qozonishi, Hizr alayhissalom obrazi kabilar. Yana romanda obrazlar tomonidan fikrini dalillash, izohlash uchun, voqealarga munosabat bildirish uchun hikoya keltirish holatlariga ham ko'zimiz tushadi. Buni biz xalq dostonlarida, shuningdek, ko'plab o'tmish ijodkorlarining asarlarida, masalan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlarida, yana Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda ham uchratishimiz mumkin. Aynan mana shu hikoya keltirish ham asarga o'zgacha kayfiyat bag'ishlagan.

Har bir tarixiy romanlarda bo'lganidek ushbu kitobda ham, albatta, to'qima obrazlar mavjud. Tarixiy romanlarni to'qima obrazlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, axir. Abu Fazl Rayyoniy, karvonboshi Sa'd, yunon ibn Yadid, Abu Nuos kabilar asarning to'qima

obrazlaridir. E'tiborni tortuvchi obrazlardan biri Abu Fazl Rayyoniy obrazidir. U Beruniyning yonida yurib, u haqida asar yozgan kishi. Men Rayyoniy — muallif, ya'ni Isajon Sultonning o'zi deb o'ylayman. Uni Beruniy haqida kitob yozishga undagan g'oyani ham muallif Rayyoniy tilidan shunday izohlaydi: "Ey Abu Fazl, – dedim o'zimga o'zim. – Shuncha ko'rgiliklar boshingga tushdi, shuncha diyorlarni kezding, nahotki, yer yuzidan nom-nishonsiz o'tib ketaversang?

Dunyoning royishiga qarasang-chi, kimlar kelib-ketmoqda? Sen agar bir tarix tartiblasang, nimalar bo'lishini fikr qilyapsanmi? Axir, xojang Abul Asqar Rayyoniy qanchalar davlatmand bo'lsa ham, bir kuni dunyodan o'tdi va uni hech kim eslamadi. Senga esa Parvardigor muruvvat eshigini ochdi: turli risolalarni o'qiy oladigan va fikr yuritadigan qildi, qo'lingga qalam tutqazdi. Shunday qilginki, kitoblarining tufayli seni ham eslasinlar, asrlar o'tgach ham mo'minlarning duolariga erish va joyi jannatda bo'lgur xojang senday bir qul tufayli xotirlarga marg'ub bo'lsin".

Bosh qahramon esa Abu Rayhon Beruniy. Asarda Beruniy yoshligidan bilimga tashna, o'tkir zehnli, o'z hayotini ma'rifikatga bag'ishlagan ilm kishisi sifatida tasvirlangan. Gurganjiy hikoyasida yosh bo'lishiga qaramasdan, mol-davlatni, Gurganjiydan qoladigan merosni tanlamay, ilm yo'lini istashi, shu sababdan, Mansur ibn Iroqqa shogird tushgani, Qur'onne to'liq yodlagani fikrimizning dalilidir. Shuningdek, uning romanda juda taqvoli inson ekanligini ham ko'ramiz. Beruniy hayoti davomida bir nechta hukmdorlarning xizmatida bo'lganini, ularning Beruniy xizmati uchun bergen in'omlarini doimo qabul qilmagani, oddiy turmush tarzini tanlagani bunga isbotdir. Uning insoniyligi, oliyhimmatligi ham tahsinga sazovor.

Mahmud G'aznaviy bilan Hindiston fathida hamroh bo'lgan Beruniy hind xalqini musulmon emasligi uchun ayblamaydi, ularga bu dinning yetib kelmaganini shunday izohlaydi: Ular Tangri taoloning dushmanlari emaslar! – dedi Abu Rayhon. – Haq dinni tanish u yoqda tursin, hatto eshitmaganlar va bilmaydilar. O'zlarining kohinlari ularni adashtirgan, desang, kohinlarning o'zları ham adashganlar. Ko'pchilik ularni kofir sanab, Xandaq jangi muomalasini qiladi, biroq, ularga asl dinni tushuntirmay turib, qanday qilib halok qilasan?".

Yozuvchining mahorati shundaki, u yana bir tarixiy shaxs Mahmud G'aznaviy obrazini Abu Rayhon Beruniy bilan birgalikda, uyg'unlikda to'liq yaratib beradi. Mahmud G'aznaviy asardaadolatli, islam dinining himoyachisi va uni keng yoyilishini istagan, bu uchun kurashgan, ilm-ma'rifikat rahnamosi, taqvodor podshoh sifatida tasvirlangan. So'zimiz isboti sifatida, uning Beruniy va boshqa olimlarni G'azni shahriga olib kelib, ularning faoliyati uchun shart-sharoit yaratib berishida, Hindiston shaharlaridan birini qo'lga kiritganda, u yerning kohinlari muqaddas budda haykalini buzmasliklari evaziga katta miqdorda pul taklifini rad etib, buzdiradi, Sumanot yurishida hind okeanining qirg'ogiga yetib Beruniyga shu so'zlarni aytadi:

– Ey Abu Rayhon! – dedi. – Men, Mahmud G'aznaviy, quruqlikning so'ngigacha qilich tebratdim, qancha qonlar to'kdim, mulklarni hukmimga bo'ysundirdim. Shu tobda ismim Mahmud ekaniga shukr qilaman. Shu mahalgacha ushbu ismni tahiratsiz tilga olmadim va uning sha'niga salavotlar aytishni kanda qilmadim. Sen esa Nuh alayhissalom davridan

buyon sodir bo‘lgan tarixlarga cherik tortding va fath etding. Parvardigorm qarshisida qaysi birimiz ko‘proq azizlanishimizni kim ayta oladi? Fotih hukmdormi yoki hikmatshunosmi? Bu so‘zlarni eshitib, barcha jum bo‘lib qoldi. – Bu ummon bo‘yiga ismi bir mazmunni anglatuvchi ikki kishining qadami yetdi, biri Mahmud, biri Muhammad, – dedi sulton. – Tangriga qasamki, Iskandar qilgan ishni biz ham qildik. Endilikda sen Odam Safiullohdan to zamonamizga qadar bo‘lgan tarixni bir kitob qilib yoz va u kitobga bizning nomimizni ham qo‘sh!”

Shunday qilib asarda tariximizning yetuk namoyandalari, ilm-fanimizning eng gullagan davri mahorat bilan yozilgan. Albatta, bu asar keyingi avlodlar uchun tariximizni o’rganishda muhim manbaa sifatida xizmat qilishiga ishonaman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Isajon Sulton ”Abu Rayhon Beruniy“ romanı “Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi“ Toshkent-2022
2. Nargiza ODINAYEVA, Oyina.uz. Beruniy bir kishi hayoti mobaynida nimalar qila olishi mumkinligining yorqin timsolidir” – yozuvchi Isajon Sulton bilan suhbat.
3. Xoliyor SAFAROV.“Osorul-boqiya” degan dasturxon yozaman, uning ne’matlarini biron ta zodagon yoki davlatmand huzuridan topolmaysan”. Beruniy siyosiga yangi chizgilar.
4. Rahmatilla Eshpo’latovich Norbekov ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANIDA SUJET DINAMIKASI maqolasi